



TIKUVCHILIK AMALIYOTIDA INDIVIDUAL YONDASHUV ASOSIDA KASBIY KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH

Raxmatillayeva Shaxodatxon Muminjonovna

Farg'ona imkoniyatlari cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan

maxsus texnikumi ta'lim ustasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada kasb-hunar ta'limi, texnikum tizimlarida, xususan, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumlarda tikuvchilik amaliyoti mashg'ulotlarini individual yondashuv asosida tashkil etish orqali o'quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish masalalari yoritilgan. Individual yondashuvning mohiyati, uni amaliy mashg'ulotlarda qo'llashning pedagogik shart-sharoitlari, bosqichlari hamda samaradorlik mezonlari tahlil qilingan. Tikuvchilik amaliyotida o'quvchilarning psixofiziologik xususiyatlari, bilim darajasi va kasbiy qiziqishlarini inobatga olgan holda tabaqalashtirilgan topshiriqlar tizimini joriy etish kasbiy kompetensiyalar shakllanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatishi asoslab berilgan. Maqolada inklyuziv kasbiy ta'lim sharoitida ta'lim ustasining faoliyatiga oid amaliy tavsiyalar ham keltirilgan.

Kalit so'zlar: tikuvchilik amaliyoti, individual yondashuv, kasbiy kompetensiya, kasb-hunar ta'limi, inklyuziv ta'lim, tabaqalashtirilgan topshiriqlar, ta'lim ustasi, amaliy ko'nikma, imkoniyati cheklangan shaxslar, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В данной статье рассматривается развитие профессиональных компетенций студентов посредством организации практических занятий по шитью на основе индивидуального подхода в профессиональном образовании, в частности, в специализированных технических училищах для лиц с ограниченными возможностями. Анализируются сущность индивидуального подхода, педагогические условия,



этапы и критерии его эффективного применения в практической подготовке. Обосновывается, что внедрение системы дифференцированных заданий, учитывающей психофизиологические характеристики, уровень знаний и профессиональные интересы студентов, оказывает положительное влияние на формирование профессиональных компетенций.

Ключевые слова: практические занятия по шитью, индивидуальный подход, профессиональная компетенция, профессиональное образование, инклюзивное образование, дифференцированные задания, преподаватель, практические навыки.

Abstract. This article examines the development of professional competencies of students through the organization of sewing practice classes based on an individual approach in vocational education, particularly in specialized technical schools for persons with disabilities. The essence of the individual approach, the pedagogical conditions, stages and criteria for its effective application in practical training are analyzed. It is substantiated that the introduction of a system of differentiated tasks, taking into account the psychophysiological characteristics, level of knowledge and professional interests of students, has a positive effect on the formation of professional competencies.

Keywords: sewing practice, individual approach, professional competence, vocational education, inclusive education, differentiated tasks, training master, practical skills.

KIRISH

Bugungi kunda O‘zbekiston Respublikasida kasb-hunar ta’limi tizimini isloh qilish, yoshlarni zamonaviy kasb-hunarlarga o‘rgatish hamda mehnat bozorida raqobatbardosh kadrlar tayyorlash davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishlaridan biri sifatida belgilangan. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 6-



sentabrda PF-5812-son “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi Farmoni hamda “Ta’lim to’g’risida”gi Qonun (2020-yil 23-sentabr) professional ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish, har bir o’quvchining individual imkoniyatlaridan kelib chiqib kasbiy tayyorgarligini ta’minlashga alohida e’tibor qaratadi.

Tikuvchilik - yengil sanoatning eng ommaviy va ijtimoiy ahamiyatli yo’nalishlaridan biri bo’lib, ushbu kasb bo’yicha mutaxassislar tayyorlash jarayonida amaliy mashg’ulotlar yetakchi o’rin tutadi. Tikuvchilik amaliyoti davomida o’quvchi nazariy bilimlarini real ishlab chiqarish vaziyatlarida qo’llashni, mato turlarini farqlashni, andoza tayyorlash, bichish, tikuv mashinalarida ishlash, buyumga pardoz berish kabi kasbiy amallarni mustaqil bajarishni o’rganadi. Ayni shu jarayonda kasbiy kompetensiyalar - bilim, ko’nikma, malaka va shaxsiy fazilatlarining yaxlit tizimi shakllanadi.

Biroq amaliyot shuni ko’rsatadiki, o’quvchilar bilim darajasi, idrok tezligi, qo’l motorikasi, diqqat barqarorligi va kasbiy motivatsiyasi jihatidan bir-biridan sezilarli farq qiladi. Bu farqlar, ayniqsa, imkoniyati cheklangan shaxslar uchun ixtisoslashtirilgan maxsus texnikumlarda yanada yaqqol namoyon bo’ladi: eshitish, ko’rish yoki tayanch-harakat a’zolarida nuqsoni bo’lgan o’quvchilar bilan ishlashda yagona qolipdagi metodika kutilgan natijani bermaydi. Shu bois tikuvchilik amaliyotini individual yondashuv asosida tashkil etish - har bir o’quvchining real imkoniyatlari, ehtiyojlari va rivojlanish sur’atini hisobga olgan holda ta’lim jarayonini loyihalash - dolzarb pedagogik muammo hisoblanadi.

Mazkur maqolaning maqsadi - tikuvchilik amaliyoti mashg’ulotlarida individual yondashuvni qo’llash orqali o’quvchilarning kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishning mazmuni, shakl va usullarini ochib berish hamda ta’lim ustalari uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Kasbiy kompetensiya tushunchasi va uning tarkibiy qismlari



Kompetensiyaviy yondashuv zamonaviy professional ta'limning metodologik asosi sifatida e'tirof etilgan. Pedagogik adabiyotlarda kasbiy kompetensiya - mutaxassisning kasbiy faoliyat vazifalarini mustaqil, sifatli va mas'uliyat bilan hal etishga tayyorligi va qobiliyati sifatida ta'riflanadi. Tikuvchi kasbi misolida kasbiy kompetensiyalar tarkibini quyidagicha guruhlash mumkin: texnik-texnologik kompetensiya (mato, ip, furnitura xossalarini bilish, tikuv mashinalari va jihozlarini sozlash hamda ulardan to'g'ri foydalanish); loyihalash-konstruktorlik kompetensiyasi (o'lchov olish, andoza qurish, modellashtirish); ijro etish kompetensiyasi (bichish, tikish, dazmollash, pardoqlash amallarini texnologik ketma-ketlikda sifatli bajarish); tashkiliy kompetensiya (ish o'rnini ratsional tashkil etish, vaqtni rejalashtirish, mehnat muhofazasi qoidalariga rioya qilish) hamda shaxsiy-kasbiy kompetensiya (mehnatsevarlik, sinchkovlik, estetik did, jamoada ishlash madaniyati).

Ushbu kompetensiyalar faqat amaliy faoliyat jarayonida, ya'ni o'quvchi mehnat operatsiyalarini ko'p marotaba, ongli ravishda va tobora murakkablashib boruvchi sharoitlarda bajarishi natijasida shakllanadi. Demak, tikuvchilik amaliyoti kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib, uning samaradorligi mashg'ulotlarni tashkil etish metodikasiga bevosita bog'liqdir.

Individual yondashuvning mohiyati va pedagogik asoslari

Individual yondashuv - ta'lim jarayonida har bir o'quvchining yosh, psixofiziologik, intellektual xususiyatlari, mavjud bilim va ko'nikmalari, qiziqish hamda ehtiyojlarini hisobga olib, unga mos ta'lim mazmuni, sur'ati, metod va vositalarini tanlashni nazarda tutuvchi didaktik tamoyildir. Bu tamoyil pedagogika tarixida Ya.A.Komenskiy, K.D.Ushinskiy g'oyalaridan boshlab rivojlanib kelgan bo'lsa, hozirgi kunda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim konsepsiyasining o'zagini tashkil etadi.



Tikuvchilik amaliyotida individual yondashuvni amalga oshirish quyidagi pedagogik shart-sharoitlarni taqozo etadi: birinchidan, har bir o'quvchining boshlang'ich tayyorgarlik darajasi, qo'l mayda motorikasi, ko'rish-eshitish imkoniyatlari va ish sur'atini aniqlovchi diagnostika o'tkazish; ikkinchidan, diagnostika natijalari asosida o'quvchilarni shartli darajalarga (boshlang'ich, o'rta, yuqori) ajratib, har bir daraja uchun tabaqalashtirilgan topshiriqlar tizimini ishlab chiqish; uchinchidan, har bir o'quvchi uchun individual rivojlanish xaritasi (traektoriyasi) yuritish; to'rtinchidan, baholashda o'quvchining boshqalar bilan emas, balki o'zining avvalgi natijalari bilan taqqoslanishiga asoslangan rag'batlantiruvchi tizimni qo'llash.

Imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv korreksion-rivojlantiruvchi mazmun kasb etadi. Masalan, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun texnologik ketma-ketlikni ko'rgazmali kartalar, rasmlari yo'riqnomalar va video materiallar orqali yetkazish; tayanch-harakat a'zolarida cheklovi bo'lgan o'quvchilar uchun ish o'rnini ergonomik moslashtirish, maxsus moslamalardan foydalanish; diqqati tez tarqaladigan o'quvchilar uchun topshiriqlarni kichik, aniq bosqichlarga bo'lib berish samarali hisoblanadi. Bunday moslashtirishlar o'quvchining nuqsoniga emas, balki saqlanib qolgan imkoniyatlariga tayanish tamoyiliga asoslanadi.

Tikuvchilik amaliyotida individual yondashuvni qo'llash metodikasi

Tikuvchilik amaliyoti mashg'ulotlarida individual yondashuvni bosqichma-bosqich amalga oshirish maqsadga muvofiq. Diagnostik bosqichda ta'lim ustasi kuzatish, suhbat, amaliy sinov topshiriqlari (masalan, to'g'ri chok yo'lini yurgizish, qaychi bilan aniq chiziq bo'ylab qirqish) yordamida har bir o'quvchining imkoniyatlarini o'rganadi. Loyihalash bosqichida o'quv dasturidagi har bir mavzu bo'yicha uch darajali topshiriqlar tayyorlanadi: boshlang'ich darajada - namuna va batafsil yo'riqnoma asosida oddiy operatsiyalarni bajarish (masalan, ro'molcha



chetini buklab tikish); o'рта darajada - texnologik karta asosida buyumni qisman mustaqil tayyorlash (fartuk, yostiqlik jildi); yuqori darajada - ijodiy element qo'shgan holda buyumni to'liq mustaqil loyihalash va tikish (yubka, ko'ylak).

Amalga oshirish bosqichida ta'lim ustasi yakka tartibdagi ko'rsatma berish (individual instruktaj) usulidan keng foydalanadi: jamoaviy kirish instruktajidan so'ng har bir o'quvchi yoniga borib, uning ish usulini kuzatadi, xatolarini o'z vaqtida to'g'rilaydi, qiynalayotgan o'quvchiga operatsiyani qayta namoyish etadi, ilg'or o'quvchiga esa qo'shimcha murakkabroq vazifa beradi. Shuningdek, "o'quvchi-o'quvchi" hamkorligi - yuqori darajadagi o'quvchining boshlang'ich darajadagi tengdoshiga ko'maklashishi (mentorlik) - ham kasbiy ko'nikmalarni, ham muloqot madaniyatini rivojlantiradi.

Nazorat-baholash bosqichida har bir o'quvchining yutuqlari individual rivojlanish xaritasiga qayd etib boriladi. Baholash mezonlari sifatida chokning tekisligi va mustahkamligi, o'lchamlarga rioya qilinishi, texnologik ketma-ketlikning to'g'riligi, ish vaqtdan unumli foydalanish, xavfsizlik qoidalariga amal qilish kabi aniq ko'rsatkichlar belgilanadi. Tajriba shuni ko'rsatadiki, o'z mehnatining natijasini - tayyor buyumni ko'rgan, uni ko'rgazmaga qo'ygan yoki amalda ishlatgan o'quvchida kasbiy motivatsiya keskin ortadi, bu esa kompetensiyalar rivojiga turtki beradi.

Individual yondashuvni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari bilan uyg'unlashtirish ham yuqori samara beradi. Tikish operatsiyalarining sekinlashtirilgan videolavhalari, elektron texnologik kartalar, mobil ilovalardagi andoza dasturlari o'quvchiga materialni o'z sur'atida, kerak bo'lsa qayta-qayta o'zlashtirish imkonini beradi. Bu, ayniqsa, eshitishida nuqsoni bo'lgan o'quvchilar uchun muhim, chunki vizual axborot ular uchun asosiy idrok kanali hisoblanadi.



XULOSA

O'tkazilgan tahlil va amaliy kuzatishlar asosida quyidagi xulosalarga kelish mumkin. Birinchidan, tikuvchilik amaliyoti kasbiy kompetensiyalarni shakllantirishning yetakchi vositasi bo'lib, uning samaradorligi mashg'ulotlarning har bir o'quvchi imkoniyatlariga moslashtirilganlik darajasiga bog'liq. Ikkinchidan, individual yondashuv diagnostika - tabaqalashtirilgan topshiriqlar - yakka instruktaj - individual rivojlanish xaritasi - rag'batlantiruvchi baholash zanjiri orqali tizimli amalga oshirilganda o'quvchilarning texnik-texnologik, ijro etish va tashkiliy kompetensiyalari barqaror rivojlanadi.

Uchinchidan, imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan ishlashda individual yondashuv korreksion-rivojlantiruvchi xarakter kasb etib, o'quvchining saqlanib qolgan imkoniyatlariga tayanish, ish o'rnini moslashtirish, ko'rgazmalilikni kuchaytirish va topshiriqlarni mayda bosqichlarga bo'lish kabi maxsus usullarni talab qiladi. Bunday yondashuv nafaqat kasbiy tayyorgarlikni ta'minlaydi, balki o'quvchining o'ziga ishonchini mustahkamlab, uning jamiyatga ijtimoiy moslashuvi va kelgusida mustaqil mehnat faoliyatiga kirishuviga zamin yaratadi.

To'rtinchidan, ta'lim ustasining kasbiy mahorati - har bir o'quvchini kuzata bilishi, uning rivojlanish nuqtasini aniq belgilashi va "yaqin rivojlanish zonasi"ga mos vazifa tanlay olishi - individual yondashuv muvaffaqiyatining hal qiluvchi omilidir. Shu bois ta'lim ustalarining malakasini oshirishda maxsus pedagogika, tabaqalashtirilgan ta'lim texnologiyalari va raqamli ta'lim vositalaridan foydalanish bo'yicha modullarni kengaytirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Toshkent, 2020-yil 23-sentabr, O'RQ-637-son.



2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Farmoni. Toshkent, 2019-yil 6-sentabr, PF-5812-son.
3. Tolipov O‘.Q., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. Toshkent: Fan, 2006. 261 b.
4. Muslimov N.A., Usmonboyeva M.H., Sayfurov D.M., To‘rayev A.B. Pedagogik kompetentlik va kreativlik asoslari. Toshkent: Sano-standart, 2015. 120 b.
5. Olimov Q.T. Kasb ta’limi metodikasi. Darslik. Toshkent: Iqtisod-moliya, 2014. 304 b.
6. Abdullayeva Q., Sodiqova Sh. Tikuvchilik texnologiyasi. Kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘qituvchi, 2010. 240 b.
7. Hasanboyeva O.U., To‘xtayeva Z.Sh. Maxsus pedagogika. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: TDPU, 2018. 216 b.
8. Yo‘ldoshev J.G‘., Usmonov S.A. Pedagogik texnologiya asoslari. Toshkent: O‘qituvchi, 2004. 104 b.
9. Hutmacher W. Key competencies for Europe // Report of the Symposium. Berne: Council for Cultural Cooperation, 1996. 72 p.
10. Зеер Э.Ф. Психология профессионального образования. Москва: Академия, 2009. 384 с.
11. Хуторской А.В. Ключевые компетенции как компонент личностно-ориентированной парадигмы образования // Народное образование. 2003. №2. С. 58–64.
12. Унт И.Э. Индивидуализация и дифференциация обучения. - Москва: Педагогика, 1990. 192 с.



13. Truhanova A.T. Tikuvchilik buyumlari texnologiyasi asoslari. Toshkent: O'qituvchi, 1996. 336 b.
14. Knowles M.S., Holton E.F., Swanson R.A. The Adult Learner: The Definitive Classic in Adult Education and Human Resource Development. London: Routledge, 2015. 402 p.